

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISHNI ZARURIYATI

Mardihev Bunyod Sirojiddin o‘g‘li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Menejment kafedrasи assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz oziq-ovqat tizimi hamda oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishni takomillashtirish zaruriyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Oziq-ovqat, iqtisodiyot, qonun-qoida, oziq-ovqat mahsuloti, bozor, ehtiyoj, boshqarish, yo‘nalish, qishloq xo‘jaligi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oziq-ovqat sanoati faoliyatini rivojlantirish va uni boshqarish jarayonlari amaldagi qonun va qonun osti xujjatlari doirasida takomillashib bormoqda. “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar davlat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ular oziq-ovqat mahsuloti muomalasi sohasida ish olib borayotgan yuridik hamda jismoniy shaxslar uchun majburiydir” etib belgilangan. Mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida eng muhim muammolaridan biri oziq-ovqat xavfsizligi va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlashdir. Oziq-ovqat sanoati mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to‘ldirishning ob’ektiv zarurati oziq-ovqat sanoati korxonalarining samarali ishslashini nazarda tutadi, chunki oxir-oqibat nafaqat aholining turmush darajasi, balki umuman iqtisodiyotning rivojlanishiga ham bog‘liq.

Oziqlantirish va sog‘lom turmush odamlarimizning asosiy ehtiyojlari hisoblanadi. Bunga oziq-ovqat xavfsizligi orqali erishiladi. Bugungi kunda ko‘plab yangi kasalliklar paydo bo‘lishi bu borada beparvolikning natijasidir. Yomon va

nosog‘lom oziq-ovqat mahsulotlaridan kelib chiqqan kasalliklar, rivojlanayotgan mamlakatlarda, shuningdek rivojlangan mamlakatlarda inson salomatligiga tahdid soladi. Ushbu kasalliklar bolalar, homilador ayollar va qariyalar uchun, ayniqsa, mudofaa tizimiga ega bo‘lmaganlar uchun katta xavf tug‘diradi.

Bozorlar globallashuvi va dunyo aholisi o‘sishi davom etar ekan, oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoj oshib, ta’mnoti ham murakkablashib boraveradi. Har bir mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini tartibga solish bo‘yicha o‘z tartiblari, qonunlari va amaliyotini belgilaydi. Bu qoidalar boshqa davlat va mintaqalar talablaridan farq qilishi mumkin. Demak, mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqish oziq-ovqat xavfsizligi va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qonunlariga qat’iy rioya qilishni talab etadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha tadqiqotlarning maqsadi ishlab chiqarilgan mahsulot iste’molchilarga va tabiiy muhitga jismoniy, kimyoviy va biologik zarar bermasligini ta’minlashdir. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi restoranlar, mehmonxonalar, patissyorlar, kafelar va shunga o‘xhash muassasalarning sifatli ishlab chiqarishidan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishning bir qator oziq-ovqat xavfsizligi menejmenti tizimlarini joriy etish zaruriyati hozirgi vaqtda oziq-ovqat xavfsizligining muhimligini oshiradi. Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha tadqiqotlar, muammolarni yuzaga keladigan oziq-ovqat xavflarini minimallashtirishga qaratilgan va bu muammolarni qanday hal qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, oziq-ovqat mahsulotlarining gigiena amaliyoti va biznesda ishlaydigan xodimlarni tayyorlash ham oziq-ovqat korxonalarini rivojlantirishga va jamiyat hayotining sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Oziq-ovqat ta’mnoti va xavfsizligi har doim keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog‘liq. Shu bois, mamlakatimizda dunyo bozorlarida yuzaga kelgan keskin tebranishlarning ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish sifatini sezilarli darajada yaxshilash, aholi salomatligi

uchun ko‘plab xavf omillarini kamaytirish imkonini beradigan bir qator muhim chora-tadbirlar qabul qilindi.

Jumladan, Prezidentimizning 2018 yil 16 yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, bozorni sifatlari, xavfsiz va arzon mahsulotlar bilan to‘ldirish, aholining xarid imkoniyatini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Shu asosida yurtimizda talab yuqori bo‘lgan oziq-ovqat tovarlarini import qilishda to‘sinq va cheklowlarni bartaraf etish, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalgalash oshirilmoqda.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “2019-2024 yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasi joriy etildi.

Quyidagilar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanadi:

- oziq-ovqat xavfsizligi sohasida me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;
- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va suv resurslaridan oqilona foydalanish;
- asosiy turdagiligi qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlari, xom-ashyoni ichki ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish;
- chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik sohasini barqaror rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, ozuqa bazasini mustahkamlash;
- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash;
- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash;
- aholini barcha qatlamlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’milanishi uchun iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish;

- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish.

- 2019-2024 yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dasturi tasdiqlanadi.

Quyidagilar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ichki omillari hisoblanadi:

- qishloq xo'jaligida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda foydalaniladigan yer va suv resurslarining hajmi, sifati va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari;

- oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, saqlash va sotish sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish darajasi;

- ichki va tashqi bozorlarda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasi;

- milliy oziq-ovqat sanoati salohiyatining rivojlanganlik holati;

- oziq-ovqat mahsulotlari importi va eksportining nisbati;

- aholi keng qatlamlarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini mahsulot turlari, hajmi va sifati bo'yicha ichki ishlab chiqarish hisobiga ta'minlash darajasi;

- aholi daromadlariga mos holda iste'mol tovarlari narxlarining o'sish sur'ati;

- navi va sifati kafolatlangan, ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan mahalliy urug' va ko'chat ta'minotining barqarorligi;

- chorva hayvonlarining zotini yaxshilash va mahalliy zotlarning mahsuldorligini oshirish bo'yicha seleksiya va naslchilik ishlarining tizimli tashkil etilganligi;

- ichki bozor konyunkturasi talabini muntazam o'r ganib borish asosida talab va taklifning muvofiqlashtirish tizimining mavjudligi;

- qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga talab etiladigan moddiy-texnik resurslar ta'minotining barqarorligi hamda mahsulotlar baholari va ularni ishlab chiqarishga sarflanadigan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatiladigan xizmatlar narxlarining o'sish darajasining mutanosibligi;

- hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda infratuzilmani rivojlanish darajasi va uni rag‘batlantirish mexanizmlarining mavjudligi;
- tabiiy yaylovlarining hosildorligi va ulardan samarali foydalanish tizimining yo‘lga qo‘yilganligi;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun aylanma mablag‘larning yetishmasligi va bank kreditlarining yuqoriligi;
- xom-ashyo yetkazib beruvchi va qayta ishlovchilar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning bozor mexanizmlariga muvofiqligi.

Quyidagilar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning tashqi omillari hisoblanadi:

- oziq-ovqat mahsulotlariga dunyo bo‘yicha narxni ortib borishi va rivojlanayotgan davlatlar talabining ko‘payishi;
- iqlim sharoitlarining o‘zgarishi;
- bioyoqilg‘i ishlatish ko‘laming ko‘payishi;
- geosiyosiy omillar.

Oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat mahsulotlarida yuzaga keladigan jismoniy, kimyoviy va biologik xatarlarni bartaraf etish uchun barcha zarur choralarini nazarda tutadi. Shuning uchun xavfsiz oziq-ovqat mahsuloti iste’mol qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, inson iste’moli uchun jismoniy, kimyoviy va mikrobiologik xususiyatlarga ega bo‘lib, uning oziqaviy qiymatini yo‘qotmaydi. Boshqacha aytganda, xavfsiz ovqatlanish ma’nosida zararli bo‘lmagan holat inson salomatligi uchun muhimdir. Aks holda, xavfli ovqatlar iste’mol qilinayotganda, kasallik belgilarining ko‘rinishi yoki sog‘liqni saqlash muammosining ortishi kabi istalmagan sharoitlar yuzaga keladi. Oziq-ovqat xavfsizligi iste’mol uchun oziq-ovqat iste’mol qilish va iste’molchilarni oziq-ovqat bilan bog‘liq xavflardan himoya qilishini aniqlashdir. Shuning uchun oziq-ovqat zanjirida bo‘lgan har bir kishi o‘z hissasini qo‘shishi kerak. Oziq-ovqat xavfsizligi va sifati faqat oziq-ovqat sohasida oziq-ovqat xavfsizligi va sifat tizimlarini qo‘llash orqali tartibga solinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini taminlash tug‘risida O‘zbekiston respublikasi prezidenti 16.01.2018 yil PF 5303 son farmoni.
2. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami: Kompleks geografik tadqiqotlar; innovasiya va amaliyot: -Andijon, 2022.
3. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. - Toshkent: Kamalak, 2013.
4. Mamajonov M, Aliyev H. Andijon geografiyasi. "Hayot nashri-2020" -Andijon 2022.
5. <https://www.belgelendirme.com/uz/belgelendirme/gida-belgelendirme/iso-22000-gida-guvenligi-yonetim-sistemi>